

Innovatsion rivojlanish vazirining Xorazm Ma'mun akademiyasiga tashrifi

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vaziri I.Yu.Abduraxmonov Xorazm Ma'mun akademiyasi xodimlari bilan uchrashdi. U bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida juda katta o'zgarishlar amalga oshirilayotganligini, ushbu o'zgarishlar va olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muhtaram Prezidentimizning 2020-yil 14-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham aks etganligini aytdi. Shu bois Xorazm Ma'mun akademiyasi xodimlari ham ushbu yangilanishlarga o'z hissasini qo'shishi lozimligini ta'kidladi. Buning uchun har bir xodim fidoyi bo'lishi, yakdil bir bo'lib vatanimiz ravnaqi uchun ishlashi lozimligini ta'kidladi.



Tashrif davomida vazir Xorazm Ma'mun akademiyasining "Termitlar tarqalishini oldini olish va ularga qarshi kurash", "Don ekinlari va don mahsulotlarining sifatini tahlil qilish", "Fizik va kimyoviy tadqiqotlar" laboratoriyalarida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.